Jahon mamlakatlarida agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsadi ushbu mamlakatda yuqori samaradorlikka va raqobatbardoshlik darajasiga ega bo'lgan qishloq xo'jaligini shakllantirishga ustivorlik qaratilmoqda. Jumladan, hukumat tomonidan agrar soha tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qishloq xo'jaligida faoliyat olib borayotgan iqtisodiy subyektlarning daromadlarini rag'batlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishda narx siyosatini ishlab chiqish, ishlab chiqaruvchilarning ma'lum bir xarajatlarini qoplash maqsadida subsidiyalar ajratish, ularga soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlar asosida ishlab chiqarish kreditlari ajratish, ayrim turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun proteksionizm siyosatini qo'llash kabi cho-



ra-tadbirlar shular jumlasidandir. AQSh, Kanada, Braziliya, Rossiya, Xitoy va Yevropa ittifoqining ayrim mamlakatlarida shu usulda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash va uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dasturlarga ustuvorlik qaratilishi natijasida hozirgi kunda dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yirik eksportchilariga aylandilar.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i rivojlangan dunyo mamlakatlarining qariyb barchasi iqtisodiy rivojlanishining yuqori cho'qqilariga erishmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida fuqarolarning farovonlik darajasining ortishi ularning turli sohalarida samarali faoliyat olib borishlariga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularni yangiliklarga intilishini rag'batlantiradi hamda bunday holatda inson kapitali kuchli raqobat ta'sirida yuqori ko'rsatkichlarga erishishga intilishini oshiradi. Qishloq xo'jaligi tarmog'i taraqqiyoti tarmoqda ekologik toza mahsulotlar yetishtirish orqali mamlakatda qayta ishlash tizimi rivojlanishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, qishloq aholisi uchun ish o'rinlari sonining ko'payishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida ham agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va diversifikatsiyalashni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida eksport qilinadigan meva-sabzavotlarning asosiy qismini ishlab chiqaruvchi dehqon xo'jaliklarida mahsulotlarni qayta ishlash va qadoqlash imkoniyatlari cheklanganligi katta yo'qotishlarga olib kelayotganligi, narxlarning mavsumiy keskin o'zgarishi va bozor sharoitlarining barqaror emasligi ham ular faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi ko'rsatib o'tilgan¹.

Hozirgi kunda dolzarb vazifalardan bo'lib, dehqon va fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni bartaraf etish, fermerlik harakatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, jamiyatda yetakchi kuchga aylanishini ta'minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yo'li bilan dehqon va fermerlar daromadini yanada oshirishga qaratilgan masalalarning maqbul yechimlarini topish muhim bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, Respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarini kompleks statistik tahlili, xo'jaliklarning iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini ko'p omilli baholash, hududlar kesimida agrar sektorni rivojlanishidagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb va muhim masala hisoblanadi².

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, tarkibiy tuzilmalarini statistik baholash bo'yicha ko'pgina mahalliy va xorijiy olimlar va mutaxassislar tomonidan keng ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Mamlakatimizning yana bir yetakchi iqtisodchi olimlaridan bo'lgan T. Shodiyev qishloq xo'jaligi tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirishning ekonometrik modellarini nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy tadqiq etgan³. X. Xo'jaqulovning "Agrar sohada ishlab chiqarish jarayonlarining xo'jalik yuritish shakllari bo'yicha statistik tahlili"⁴ nomli ilmiy maqolasida mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning o'ziga xos xususiyatlari, ularda xo'jalik yurituvchi subyektlarning tutgan o'rni, xo'jalik toifalari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish darajasi va dinamikasi statistik baholanib, ilmiy xulosalar chiqarilgan. B. Utanovni "Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyatini samaradorligini ifodalovchi integral ko'rsatkichlar"⁵ mavzusidagi ilmiy maqolasida Respublikamizda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyatini tavsiflovchi va ularning iqtisodiy aniqlash va integral ko'rsatkichlar tizimi ilmiy asoslangan holda bayon etilgan. Q. Berdiqulovning "Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishni statistik tahlili" nomli ilmiy maqolasida mavzuda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish bo'yicha keyingi yilda qabul qilingan me'yoriy hujjatlar va uning amaliyotga joriy etish jarayonlari, qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan uslubiyotidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan⁶. Q.X. Jumayevni "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy – statistik tahlili" nomli ilmiy maqolasida⁷ mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishning bugungi kundagi holati, tarmoqning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, ularning asosiy sohalarining xo'jalik faoliyatlari bo'yicha iqtisodiy tahlili hamda tarmoqni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilishi zarur bo'lgan asosiy muammolar va yo'nalishlar bayon etilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni. www.lex.uz.

2 U.M. Zakirova. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmog'idagi tarkibiy o'zgarishlar va ularni iqtisodiy-statistik tahlili. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2022-y mart-aprel (№ 00058).

3 Shadiyev T.Sh. Экономические модели развития сельского хозяйства. – Т.: Fan, 1986. – 168 с.

4 Xo'jaqulov X.D. Agrar sohada ishlab chiqarish jarayonlarining xo'jalik yuritish shakllari bo'yicha statistik tahlili // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2014, № 3.

5 Utanov B. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyatini samaradorligini ifodalovchi integral ko'rsatkichlar // O'zbekiston statistika axborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2019 yil 1-son.

6 Berdiqulov Q.G'. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishni statistik tahlili // O'zbekiston statistik axborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2021-yil, 1-son.

7 Jumayev Q.X. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy statistik tahlili // O'zbekiston statistika axborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2021 yil 4-son.



Tadqiqotning maqsadi bo'lib, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ulardagi tarkibiy o'zgarishlarni baholash, istiqboldagi yo'nalishlarini belgilash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, Respublikamizda agrar sektorning rivojlanish jarayonlari, ulardagi tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarni kompleks statistik tahlilini amalga oshirish va samaradorligini baholash natijasida istiqbol uchun muqobil bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va asosiy yo'nalishlarini belgilash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar, vaqt qatorlari, iqtisodiy indekslar, statistik jadval va grafiklar kabi usullardan keng foydalanildi.

MUHOKAMA


Mamlakatimizning ayrim makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi dinamik o'zgarishlar tarmoq rivojlanishida o'zaro aloqadorlik jihatlarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi YaIMi hajmi joriy narxlarida 1 066 569,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yil bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o'sdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 426,3 trln. so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 411,6 trln. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 10,4 trln. so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 4,3 trln. so'mni tashkil qildi.

Joriy yil boshiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) soni – 37 772 birlikni, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarda – 34 831 birlikni, o'rmon xo'jaligida – 239 birlikni hamda baliqchilik xo'jaligida – 2 702 birlikni tashkil etdi.

NATIJALAR

Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining yalpi hududiy mahsulot (YaHM) tarkibidagi ulushi mamlakat iqtisodiyotida agrar tarmoqning hududlar kesimidagi salmog'ini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm: Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining YaHM tarkibidagi ulushi, % da⁸

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot (YaIM) (yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ)) tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 24,3 % ni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulush Jizzax viloyatiga (49,2 %) to'g'ri kelsa, aksincha kam ulushga ega hududga Navoiy viloyatini (13,9 %) keltirib o'tish mumkin.

8 www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



2023-yil yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4,1 % (2022 yilda – 3,6 %) darajasida ijobiy o'sish qayd etildi. Ushbu ijobiy o'sish sur'atlari chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,7 % (2022 yilda – 3,3 %) ga o'sishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, joriy davrda dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish esa 4,2 % (2022 yilda 3,8 %)ga o'sdi⁹.


O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmiga qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi hamda baliqchilik xo'jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar hajmining ta'sirini tahlil qilish zarur(1-jadval).

1-jadval: O'zbekistonda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi, trln.so'm¹⁰

	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'zgarishi, %
Jami	224,3	261,9	317,0	362,9	426,3	190,0
shu jumladan:						
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar	217,3	253,2	306,9	350,1	411,6	189,4
shundan:						
Qishloq xo'jaligi mahsuloti	216,3	250,3	303,4	345,2	404,6	187,0
O'rmon xo'jaligi	5,5	6,8	7,5	9,6	10,4	189,0
Baliqchilik xo'jaligi	1,5	1,9	2,6	3,2	4,3	2,8 m.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari O'zbekistonda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 90,0 % ga oshgan. O'z navbatida dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 189,4 % ni tashkil etgan.

Ularning jami qishloq xo'jaligi mahsulotlaridagi ulushi tarmoq rivojlanishida qanday ta'sirga ega ekanligini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm: 2023-yilda O'zbekiston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da¹¹

Dehqonchilik mahsulotlari va uning tarkibidagi meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishdagi kuzatilyotgan ayrim o'zgarishlar dinamikasini quyidagi jadval ma'lumotlarida ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

⁹ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlaridan olingan.

¹⁰ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹¹ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

**2-jadval: 2023-yilda yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari o'sish sur'ati, % da¹²**

Mahsulot nomi	Barcha toifadagi xo'jaliklar	Fermer xo'jaligi	Dehqon va tomorqa xo'jaligi	Qishloq xo'jaligi korxonasi
Donli ekin	105,5	104,0	108,8	112,8
Sabzavotlar	103,5	103,3	102,7	120,0
Kartoshka	103,8	109,5	101,5	111,1
Poliz ekini	105,5	108,0	101,9	108,0
Meva-rezavor	104,1	105,9	103,2	95,1
Uzum	98,7	97,5	99,5	102,5

Tahlillarimizga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda ham dehqon va fermer xo'jaliklarida ham, qishloq xo'jaligi korxonalarida ham o'rganilayotgan yilda ijobiy o'sish sur'ati kuzatilgan. Faqat uzum ishlab chiqarishda qishloq xo'jaligi korxonalaridan tashqari barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda pasayish kuzatilgan.

Tahlillarimiz ko'rsatishicha, mamlakatimizda 2023-yilda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 8 426,6 ming tonna donli ekinlar (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,5 % ga ko'p), 3 574,1 ming tonna kartoshka (3,8 % ga ko'p), 11 553,7 ming tonna sabzavotlar (3,5 % ga ko'p), 2 553,5 ming tonna poliz (5,5 % ga ko'p), 3 121,7 ming tonna meva va rezavorlar (4,1 % ga ko'p), 1 737,6 ming tonna uzum (1,3 % ga kam) yetishtirilgan.

Yuqoridagi ijobiy o'sish dinamikasiga erishishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta'sirini quyidagi keltirilgan ma'lumotlar asosida baholashimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval: 2023-yilda mamlakatimizda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta'siri¹³

Hududlar	Hajmi mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
O'zbekiston	403 974,4	103,6	94,8
Qoraqalpog'iston	15 530,9	104,1	93,9
Andijon	41 590,5	104,0	96,1
Buxoro	37 325,7	103,6	97,2
Jizzax	26 747,7	104,1	97,0
Qashqadaryo	39 415,8	104,6	98,1
Navoiy	18 909,8	101,8	96,0
Namangan	30 915,6	104,4	94,2
Samarqand	47 974,9	104,9	93,7
Surxondaryo	31 679,0	101,7	94,1
Sirdaryo	13 319,0	101,0	90,8
Toshkent	36 297,2	103,1	88,5
Farg'ona	37 501,4	103,6	95,1
Xorazm	26 766,9	103,6	96,3

Yuqorida keltirilgan jadvaldan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 403 974,4 mlrd. so'mni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Respublikaning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 94,8 % ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichni hududlar bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, jami tarmoqqa nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yuqori ulushiga Qashqadaryo (98,1 %), Buxoro (97,2 %), Jizzax (97,0 %), Xorazm (96,3 %), Andijon (96,1 %) va Navoiy (96,0 %) viloyatlarini keltirishimiz mumkin.

Mamlakatimizda joriy yildan qishloq xo'jaligi tarmog'ida ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha quyidagilar tasdiqlandi:

- qishloq xo'jaligi sohasida konsepsiyasi;
- qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazishga doir chora-tadbirlar rejasi;
- qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha Respublika komissiyasining tarkibi;

¹² www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹³ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.




- qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha hududiy komissiyalarning namunaviy tarkibi.

Qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash;
- aholining turmush darajasi va farovonligini oshirish;
- mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, baholash, tahlil qilish va e'lon qilish.

Ro'yxatdan o'tkazish qishloq xo'jaligi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini hisobga olish orqali amalga oshiriladi(3-rasm).



3-rasm: Qishloq xo'jaligini ro'yxatdan o'tkazish asosiy ko'rsatkichlari¹⁴

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida ro'yxatdan o'tkazish jarayoni 3 bosqichda amalga oshiriladi. Ya'ni:

1-bosqich-2022–2024-yillarni o'z ichiga olib, quyidagilarni nazarda tutadi:

- ro'yxatdan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari hamda metodik asoslari, ro'yxatdan o'tkazishga doir boshqa masalalarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish;
- sinov asosida qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish, natijalarini tahlil qilish;
- ro'yxatdan o'tkazishning yakuniy natijalarini olish va e'lon qilish uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish;
- ro'yxatdan o'tkazish tadbirlarida ishtirok etuvchi xodimlarni o'qitish.

2-bosqich-2024-yilda amalga oshirilib, bevosita qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish tadbiri bajariladi, ya'ni qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar yig'iladi.

3-bosqich- 2024–2026-yillarda quyidagilar amalga oshiriladi:

- ro'yxatdan o'tkazishga doir birlamchi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimida qabul qilib olish;
- ma'lumotlarini avtomatlashtirilgan axborot tizimida qayta ishlashga tayyorlash va joriy etish;
- ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha dastlabki natijalarni olish;
- ro'yxatdan o'tkazish natijalarini e'lon qilish va tarqatish.

XULOSA

1. Statistik tahlil ma'lumotlaridan foydalanib, istiqbolda obyekt sifatida ilmiy tadqiq etilayotgan qishloq xo'jaligi tarmog'idagi xo'jaliklar faoliyatini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- xorijiy investitsiyalar asosida agrofimlar tomonidan mahsulotlarni saqlash omborlarini yangilash;
- fermerlar uyushmasi, savdo sanoat palatasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda yangi mini texnologiyalarning ko'rgazmalari tashkil etish, ularni sotib olish bo'yicha zaruriy statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- hududlarda fermer xo'jaliklarining zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanishi uchun zaruriy moliyaviy ko'mak (lizing, imtiyozli kredit) berishni qayta ko'rib chiqish; tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar ajratish;
- tashqi va ichki bozor, qayta ishlash korxonalari, aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabi, narxlari, sotib olish hajmlari kabi ko'rsatkichlarga doir statistik axborotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

14 <https://bugun.uz/O'zbekistonda qishloq xo'jaligi bo'yicha statistik ma'lumotlar bazasi kengaytiriladi>



2. Raqobat sharoitida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarni tizimli statistik tadqiq etish maqsadga muvofiq sanaladi. Xususan:
 - Respublika (hududlar) darajalarida qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatini zamonaviy statistik usullar asosida kompleks tahlil qilish;
 - xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish asosida ularning raqobatbardoshligini oshirish;
 - qishloq xo'jaligi tarmog'i statistika tizimida axborotlar bilan ishlash va ularni tarqatish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mavjud salohiyatlaridan kengroq foydalanish va boshqalar.
3. Istiqbolda qishloq xo'jaligi tarmog'ida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:
 - maqsadli dasturlarni amalga oshirish;
 - yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarni barpo etish;
 - tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish;
 - qayta ishlash sohasida yangi korxonalar tashkil etish hamda bozorni mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash;
 - ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xorijiy davlatlarga eksport ko'lamini kengaytirish va boshqalar.
4. Respublikamiz qishloq xo'jaligini iqtisodiy rivojlanish istiqbollari statistik prognozlash uslubiyotini takomillashtirish maqsadida quyidagi vazifalar hal etilishi zarurligi tavsiya etildi. Bular:
 - qishloq xo'jaligining rivojlanish maqsadlari, variantlari va parametrlarining ilmiy asoslanishi zarurligi;
 - jarayonga obyektiv ta'sir ko'rsatadigan rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarining hisobga olinishi kerakligi;
 - tovar va xizmatlar bozori, mehnat bozori, kapital va moliya bozorining istiqbolli rivojlanish xususiyatlarini guruhlariga ajratilishi hamda eksport salohiyatini kengaytirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi va h.k.lar.
5. Ma'lumki, qishloq xo'jaligida tuzilmaviy-tarkibiy o'zgarishlarni miqdoran baholash va undagi siljishlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini o'lchashda turli xil statistik usullar qo'llaniladi. Xususan: umumlashtiruvchi statistik ko'rsatkichlar, turli ko'rinishdagi guruhlashtirish, ko'p o'lchamli guruhlashtirish usuli, omilli tahlil usullari (shu jumladan indeksli, korrelyatsion-regression tahlil usuli, dispersion tahlil), rayonlashtirish va hokazo. Odatda tuzilmaviy holatni tashkil etuvchi ulushlar orasidagi tafovutni, ya'ni tarkibiy siljishlarning tezligi va jadalligini yoki ulushlar rangi (tartib raqami bo'yicha o'rni) orasidagi tafovutni statistik jihatdan umumlashtirilgan holda miqdoran baholashda variatsion ko'rsatkichlar usuli, tarkibiy siljishlarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sirini baholashda korrelyatsion-regression tahlil va, ayniqsa, indeks usuli keng qo'llaniladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni. 2021-yil 1-aprelda qabul qilingan. www.lex.uz
2. "O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni. 2004-yil 26-avgust, 662-II-son. www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853- sonli Farmoni. www.lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz
5. Xo'jaqulov X.D. Agrar sohada ishlab chiqarish jarayonlarining xo'jalik yuritish shakllari bo'yicha statistik tahlili //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2014, № 3.
6. Shadiev T.Sh. Ekonomicheskoe modeli razvitiya selskogo xozyaystva. – T.: Fan, 1986. – 168 s.
7. Utanov B. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyatini samaradorligini ifodalovchi integral ko'rsatkichlar //O'zbekiston statistika axborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2019-yil 1-son.
8. Berdiqulov Q.G'. Qishloq xo'jalikida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishni statistik tahlili //O'zbekiston statistik axborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2021-yil, 1-son.
9. Jumaev Q.X. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy-statistik tahlili //O'zbekiston statistika axborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2021-yil 4-son.
10. Berkinov B.B., Ergasheva Sh.T. Mintaqada ekin maydonlarini optimal tarkibini shakllantirish. Voprosy modelirovaniya i informatizatsii ekonomiki. Sbornik nauchnx trudov. Institut kibernetiki. –T.:2000, 88-91-b.
11. Zakirova U.M. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmog'idagi tarkibiy o'zgarishlar va ularni iqtisodiy-statistik tahlili. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 2022-y. mart-aprel (№ 00058)
12. www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi
13. <https://bugun.uz>
14. <https://www.gazeta.uz/uz/2019/07/08/agriculture>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.